



ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ*
к договору (контракту) от 20.01.2022 г. № 1

между Карши туман Электр тармоклари и Карши туман СЭО ва ЖС хизмати на общую сумму 4878000,00

Глава _____ 054
Казначейский лицевой счёт _____ 100022860102247074110054003

(в сумах)

Наименование месяцев 2022 г.	Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации)			Всего
	4221000			
Январь	1 625 850,00			1 625 850,00
Февраль	1 625 850,00			1 625 850,00
Март	1 626 300,00			1 626 300,00
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
Всего за год	4 878 000,00			4 878 000,00

Всего 4878000,00 сум

Четыре миллиона восемьсот семьдесят восемь тысяч сум 00
тийин
сумма прописью

Из вышеуказанной суммы 1 625 850,00 сум или 100,00% *** от общей суммы договора подлежат предоплате в Январь мес. 2022 г.

(*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2-х экземплярах;


(**) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(***) — Месячный _____ % , от указанной выше суммы который необходимо оплатить до _____ числа текущего месяца. (Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель _____

Главный бухгалтер _____


(подпись) _____ Машитов Истам Боймуродович
Ф.И.О.


(подпись) _____ Худаяров Ботир Талифович
Ф.И.О.

Принял работник казначейского подразделения _____
(подпись)

Получил работник заказчика _____
(подпись)

« _____ » _____ 20__ г.

«20» январь 2022 г.

**BYUDJETDAN MABLAG' OLUVCHI TASHKILOT VA MUASSASALARGA ELEKTR ENERGIYASI ETKAZIB
BERISH, UNDAN FOYDALANISH VA HIZMATLARNI KO'RSATISH BO'YICHA SHARTNOMA**

« 20 » yanvar 2022-y.

№ 1

Beshkent shahri

Qarshi tuman Elektr tarmoqlari keyingi o'rinlarda "Ta'minotchi" deb yuritiladi. O'zining Nizomi asosida ish yurituvchi Qarshi tuman elektr tarmoqlari nomidan, bir tomondan va Qarshi tuman SEO va JSX keyingi o'rinlarda "Istemolchi" deb yuritiladi, O'zining Nizomi asosida ish yurituvchi bo'lim boshlig'i I.B.Mashtinov nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

I. SHARTNOMANING MOHIYATI

1.1.Ushbu shartnoma bo'yicha "Ta'minotchi" "Iste'molchi"ning buyurtmanomasiga muvofiq ulangan tarmoq orkali elektr energiyasi etkazib berishni o'z zimmasiga oladi, "Iste'molchi" esa mazkur shartnomaning 1- ilovasida belgilangan quvvatdagi elektr energiyasini qabul qilib olish va ilova qilinadigan jadval asosida byudjetdan ajratilgan mablag'lar hisobidan xak tulashni uz zimmasiga oladi.

1.2.Byudjet tashkilotining yil davomida smeta harajatlariga kiritiladigan uzgarishlar doirasida hizmat kursatuvchi, hizmat oluvchilar tomonidan uzaro kelishilgan xolda shartnoma summasiga uzgartirishlar kiritishga haklidirlar.

1.3.Foydalanadigan elektr energiyasining yillik hajmi 10840 kVt.s tashkil qiladi.

II.TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. "Iste'molchi"ning huquqlari:

a)"Ta'minotchi"dan shartnomada kursatilgan miqdordagi elektr energiyasini elektr tarmoqlarining bo'linish orasiga etkazib berishni; (2-ilova)

b) elektr tarmoqlarining balans buyicha tegishlilik chegarasida elektr energiyasining sifat kursatkichlarini shartnoma (3-ilovaga asosan) va standartlarda belgilangan miqdorda saklashni;

v)elektr energiyasi iste'molining oylik shartnomaviy miqdorini choraklik miqdor doirasida joriy chorak mobaynida 2 marta (1 chi va 2-oylarda ular tugaguncha 10 kundan kechikmay) qayta taqsimlanishini "Ta'minotchi"dan talab qilishga haqlidir.

g)elektr tarmoklarining bulinish chegarasida zarur sifatga muvofiq bulmagan elektr energiyasi etkazib berilganda "Iste'molchi" uz hohishiga ko'ra;

muddatlar buzilgan yoki zarur sifatga muvofiq bulmagan xolda etkazib berilgan elektr energiyasini qabul kilishni va xaqini tulashni rad etishga

g) "Ta'minotchi"dan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki zarur darajada bajarmaslik natijasida etkazilgan zararni, boy berilgan foydani qoplanishini talab qilishga haqlidir.

2.2."Iste'molchi"ning majburiyatlari:

a) Hisobga olish joyi elektr tarmoqlarning "Ta'minotchi" bilan balans mansubligi bo'yicha bulinish chegarasiga utkazilsin (iste'molning xisobga olinishi bo'linish chegarasida amalga oshirilmagan vaziyatlarda);

b)elektr tarmoqlari, asbob uskunalarning tegishli tehnik holatini va havfsizligini ta'minlash;

v)elektr energiyasini iste'mol kilishning urnatilgan tartibiga rioya qilish hamda elektr energiyasidan foydalanishda yuzaga keladigan avariya, yonginlar, elektr energiyasini xisobga olish asboblardagi nosozliklar haqida "Ta'minotchi"ga habar berish;

g) reaktiv energiya ishlab chikaruvchi uskunalarning ish rejimiga rioya kilish shartnomaning 4-ilovasiga muvofiq;

d)iste'mol qilinadigan elektr energiyasini xisobga olish asboblari va ulardagi tamg'alarning butligi va saqlanishini ta'minlash;

e)ishlatilgan elektr energiyasi uchun tulovlarni uz vatida amalga oshirish.

2.3."Ta'minotchi" ning huquqlari:

a)"Iste'molchi"dan etkazib beriladigan elektr energiyasi uchun oldindan tegishli haqni tulashini va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda uzil-kesil xisob-kitoblarni amalga oshirishni;

b)shartnomaga yoki shartnoma asosida berilgan buyurtmanomaga muvofiq etkazib berilgan elektr energiyasini kabul kilishni asossiz rad etish natijasida etkazilgan zararni koplashni "Iste'molchi"dan talab qilishga haqlidir;

v) uning vakili tegishli amal qilish muddati bilan shahsiy guvoxnoma mavjud bulganda elektr hisoblagichlarni kurib tekshiradi;

g) ma'naviy jihatdan eskirgan elektr energiyasini indukcion hisobga olish priborlarini reja asosida Davlat tekshiruvidan utkazmaydi hamda O'zR Vazirlar Malikasining 2004 yil 1 noyabrdagi 512-sonli qaroriga muvofiq ularni zamonaviy elektron xisoblagichlarga almashtirilishini talab qiladi.

2.4.Ta'minotchining majburiyatlari;

a)qonun hujjatlariga muvofiq ushbu shartnoma majburiyatlarini o'z muddatda bajarilishini ta'minlash;

b) «Iste'molchi»ga shartnomada kursatilgan miqdordagi elektr energiyasini elektr tarmoqlarining bulinish chegarasiga etkazib berish;

v)elektr tarmoqlarining balans bo'yicha tegishlilik chegarasida elektr energiyasining sifat kursatkichlarini shartnoma va standartlarda belgilangan miqdorda saqlash 3-ilovaga muvofiq;

g)elektr energiyasining "Iste'molchi"ga uzluksiz ("Elektr uskunalarning qurilma qoidalari" 1.2.17-bandi asosida) etkazib berilishini ta'minlash;

- d) elektr tarmoqlarini rejali ta'mirlashda elektr energiyasi bilan ta'minlashdagi mumkin bulgan uzilishlar tugrisida, "Iste'molchi"ni kamida 3 sutka oldin ogohlantirish;
- e) elektr energiyasidan asossiz uzishga yul quymaslik va "Iste'molchi"ga elektr energiyasi berishning rejadan tashqari tuhtatilishi sabablarini xabar qilish;
- j) "Iste'molchi"ga elektr xisoblagichlarining amaldagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq almashtirish muddatlarini qabar qilish;
- j) joriy etiladigan cheklashlar xaqida cheklashning joriy etilish hajmi va vaqtini kursatgan qolda 0,5 kun oldin xabar qilish;
- z) energiya tarifi uzgarganda urnatilgan tartibda "Iste'molchi"ga bildirish.
- i) "Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari"ga (O'zR Vazirlar Ma'kamasining 2005 yil 27 yanvardagi 32-sonli qaroriga 1-ilova), elektr energiyasi iste'molchilari va energiya ta'minoti tashkilotlari urtasida hisob-kitoblar tartibi tugrisida Nizomga (UzR Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 1 noyabrdagi 511-sonli Karoriga 2-ilova) rioya kilinsin.

III. ELEKTR ENERGIYASINI NARHI VA HISOB-KITOB-LAR TARTIBI

3.1. SHartnomaning tuzilgan vaqtdagi umumiy yillik bahosi 4 878 000 (to'rt million sakkiz yuz yetmish sakkiz ming) sumni tashkil etadi. Elektr energiyasi tarifi bir stavkali, ikki stavkali, tabakalashtirilgan stavkada belgilanadi. (zarur bulmagani uchiriladi)

SHartnoma buyicha etkazib beriladigan elektr energiyasining tariflari - 3 va 6-sonli ilovalarda beriladi.

3.2. Navbatdagi oy uchun etkazib berish nazarda tutilgan resurslar hajmining kamida 50 foizdan kam bulmagan miqdorida oldindan haq avans tariqasida tulanadi, iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun qolgan summa 50 kun mobaynida to'liq to'lab beriladi.

3.3. Etkazib berilgan elektr energiyasi uchun byutjetdan pul o'tkazish yo'li bilan xisob-kitob qilinadi. 1) (hisob-kitob qilish shakli ko'rsatiladi) 1 kvT elektr energiyasini narhi 450 sum

2022 yil jami

	1-chorak			2-chorak			3-chorak			4-chorak			Yillik
	Yanvar	Fevral	Mart	April	May	Iyun	Iyul	Avqust	Sentyabr	Oktyabr	Noyabr	Dekabr	
kVt	3613	3613	3614	-	-	-	-	-	-	-	-	-	10840 KVt
Summa	1625850	1625850	1626300	-	-	-	-	-	-	-	-	-	4878000-

3.4. "Iste'molchi"ning aybi bilan shartnomada kursatilgan hajmlarga nisbatan elektr energiyasi kam iste'mol qilinganda tulanagan avans mablaglari kaytarilmaydi, balki iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun keyingi hisob-kitoblarda xisobga olinadi.

3.5. "Istemolchi" har oyda bulinish chegaralarida urnatilgan hisobga olish priborlari kursatkichlarini yozib oladi. Ushbu kursatkichlar asosida o'lekov transformatorlari koefficientlarini hisobga olgan xolda iste'mol miqdori va foydalanilgan elektr energiyasi uchun to'lov summasi aniqlanadi.

Belgilangan shakldagi hisobot "Ta'minotchi"ga 2022-yil 31-dekabrgacha muddatda yuboriladi.

3.6. Hisob-kitob elektr hisoblagichi bo'linish chegarasida o'rnatilmagan taqdirda elektr tarmogining balans bo'yicha tegishlilik chegarasidan elektr hisoblagich o'rnatilgan joygacha elektr energiyasi yo'kotilishi miqdori "Iste'molchi" bilan birgalikda hisob-kitob yo'li bilan aniqlanadi va to'lov uchun "Iste'molchi"ga berilgan foydali elektr energiyasi bilan jamlanadi. (6-ilovaga asosan)

3.7. Taqdim etilgan belgilangan shakldagi hisobotga asosan "Ta'minotchi" "Iste'molchi"ga hisob-faktura yozib beradi.

Har-hil tarif guruhiga taaluqli bir necha ob'ektlarga ega iste'molchilar bilan hisob-kitoblar har bir tarif guruxiga urnatilgan hisobga olish priborlari kursatkichlari bo'yicha amalga oshiriladi, lekin shuning bilan birga har bir ob'ekt bo'yicha bilib ko'rsatilgan bitta hisob-faktura yozib beriladi.

qisman (tulik hajmda emas) hak tulananda, "Iste'molchi" tulov hujjatida qaysi tarif guruxlari bo'yicha tulov birinchi navbatda amalga oshirilayotganini kursatishi kerak. Aks holda, "Ta'minotchi" tarif guruhlari bo'yicha qarzdorlikni bartaraf etish navbatini mustaqil belgilash huquqiga ega.

Elektr energiyasi iste'moli haqida hisobot taqdim etilmaganda, elektr ta'minoti tashkiloti shartnomaviy elektr iste'moli hajmi bo'yicha hisob-kitob oyiga keyinchalik amalda iste'mol qilingan elektr energiyasi bo'yicha qayta hisob-kitob qilgan holda hisob-kitobni amalga oshiradi.

Ortiqcha tulanagan mablaglar Qaytarilmasdan avans tulovi tarig'asida hisobga olinadi.

3.8. "Iste'molchi" tomonidan tegishli oyga etkazib berilishi kuzda tutilgan elektr energiyasi hajmi qiymatining 100 foizidan kam (oldindan tulov miqdori kursatilsin, lekin 50 foizdan kam bulmasin) bulmagan miqdorida oldindan tulov amalga oshirilganda elektr energiyasi har oyda etkazib beriladi. Kichik va o'rta biznes vakillari, kichik motorli, hususiy tadbikorlar elektr energiyasi qiymatining 100 foizi miqdorida oldindan to'lov amalga oshirishlari kerak.

Yakuniy hisob-kitob esa 3 kun davomida (yakuniy hisob-kitob muddati kursatilsin, lekin 30 kundan oshmasin) amalga oshiriladi. "Iste'molchi"da elektr energiyasi uchun 1 kundan ortiq (muddati yuqorida kursatilgan) muddati utgan qarzdorligi mavjud bo'lganda, avans tulovi tariqasida tulanagan mablag'lar muddati utgan qarzdorlikni bartaraf etishga yo'naltiriladi va avans tulovi tariqasida hisobga olinmaydi.

"Iste'molchi" bir necha tarif guruhiga ega bulsa, u oldindan tulov hujjatida tarif guruhi buyicha elektr energiyasi summasi va yoki miqdorini kursatishi kerak. Aks holda, "Ta'minotchi" tarif guruhlari bo'yicha qarzdorlikni bartaraf etish navbatini mustaqil belgilash huquqiga ega.

3.9. Uzil-kesil hisob kitob ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshirilmagan taqdirda "Ta'minotchi" "Iste'molchi"ga elektr energiya berishni to'xtatadi (shartnomaning 5.5 bandida ko'rsatilgan "Iste'molchi"lar bundan mustasno). Bir vaqtning o'zida, "Ta'minotchi" elektr energiyasi etkazib berish dalolatnomasi asosida amalga oshirilgan to'lovlar summasini chiqarib tashlagan holda xizmat ko'rsatuvchi bank orqali hisobot oyida etkazib berilgan elektr energiyasi summasiga aksept bilan to'lov talabnomasi beradi.

IV. ELEKTR ENERGIYASI ETKAZIB BERISH VA UNI QABUL QILIB OLISH TARTIBI

4.1. Shartnomada kursatilgan majburiyatlar shartnoma shartlari va qonun hujjatlari talablariga muvofiq tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar uz zimmalariga olgan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2. Elektr energiyasini etkazib berish shartnomada yoki shartnoma asosida berilgan buyurtmanomada kursatilgan muddatlar va hajmlarda mazkur shartnomada kursatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi 5-ilovaga muvofiq.

"Ta'minotchi" buyurtmanomalarni ro'yhatdan etkazish daftarini yuritadi.

4.3. "Iste'molchi" ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoki undagi elektr energiyasini etkazib berish miqdori va sanasini uzgartirishga haqlidir, bu haqda "Ta'minotchi"ni buyurtmanomada kursatilgan sana boshlanishidan joriy oy tamom bulishigacha kamida 10 kun oldin habardor qiladi.

V. ELEKTR ENERGIYASI BERISHNI TUHTATISH VA UZIB QUYISH TARTIBI

5.1. Elektr energiyasi berishdagi uzilishlarga, elektr energiyasini berishni tuhtatish yoki cheklashga tomonlar kelishuviga muvofiq yo'l quyiladi.

5.2. "Iste'molchi" bilan kelishmasdan va uni ogohlantirmasdan, biroq unga darhol xabar bergan holda elektr energiyasi berishni vaqtincha uzib quyish, tuhtatish yoki cheklashga "Ta'minotchi" tizimida avariyaning oddini olish yoki uni tugatish uchun kechiktirib bulmaydigan choralarni kurish zarur bo'lgan xollarda yo'l qo'yiladi.

5.3. Elektr energiyasi iste'molining belgilangan rejimi buzilganda;

shartnomada nazarda tutilgan elektr energiyasi hajmi qiymatining kamida 50 foizini oldindan tulamaganda;

hisob-kitob oyi tamom bo'lgandan keyin 30 kun mobaynida iste'mol qilingan elektr energiyasi uchun tulanmagan qarzi mavjud bulganda;

"Iste'molchi" elektr energiyasi tarmog'iga uzboshimchalik bilan ulanganda yoki quvvat shartnomada kelishilgan miqdordan oshirilganda;

"Uzstandart" agentligi organlari tomonidan tekshirilgan iste'mol qilinadigan energiyani hisobga olish priborlariga ega bulmaganda;

"Ta'minotchi"ning vakili soat 8.00 dan 20.00 gacha bulgan davr mobaynida hisoblash priborlarini kurishga asossiz quyilmaganda, "Ta'minotchi" elektr energiyasi berishni to'xtatib quyish huquqiga ega buladi.

5.4. "Iste'molchi"da hisobga olish pribori bo'lmaganda;

hisobga olish pribori "Iste'molchi"ning aybi bilan shikastlanganda;

hisobga olish priborlarini ishga tushirish sxemasi o'zgarganda yoki hisoblagichdan tashkari nagruzka ulanganda;

foydalanilgan elektr energiyasi uchun haq belgilangan muddatlarda tulanmaganda "Iste'molchi" 1 kun oldin ogohlantirilib elektr energiyasi tarmoqidan uzib qo'yiladi;

5.5. Elektr energiyasini uzib quyish tehnogen va avariya oqibatlariga olib kelishi mumkin bulgan, aloxida

havf va uzluksiz tehnologiya jarayonga ega bulgan (Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 1-noyabrdagi Elektr energiyasidan foydalanilganlik uchun hisob-kitob qilish mexanizmini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari tug'risida" gi 511-son Karor nizomining 1-ilvasidagi ruyhatga kiritilgan) iste'molchilarning gulov muddati utgan qarzlari vujudga kelgan taqdirda haqi tulanmaganligi uchun elektr energiyasi berilishini cheklash, belgilangan tartibda energiya bilan ta'minlashning tehnologik va avariya bronigacha, tulik uzib quyish esa faqat sud karoriga kura amalga oshirilishi mumkin. "Ta'minotchi" va "Iste'molchi" tomonidan imzolangan tehnologik va avariya bronigacha dalolatnomalari shartnomaning uzviy qismi hisoblanadi. (7-ilovaga muvofiq)

VI. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

6.1. Elektr energiyasi etkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, 5 foizdan kup miqdorda elektrenergiasini etkazib berilmagan hollarda "Ta'minotchi" "Iste'molchi"ga muddati etkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlar bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya tulaydi, biroq penyaning umumiy summasi etkazib berilmagan elektr energiasini qiymatining 50 foizidan ortiq bulmasligi kerak. Penya to'lanishi "Ta'minotchi"ni shartnomaning zarur darajada bajarilishidan va elektr energiasini etkazib berish kechiktirilganligi yoki to'liq etkazib berilmaganligi tufayli etkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

6.2. Etkazib berilgan elektr energiasini xaqini uz vaqtida tulamagan uchun "Iste'molchi" mahsus hisob raqamidan "Ta'minotchi"ga etkazib yuborilgan har bir kun uchun tulov summasining 0,1 foizi (mahsus tartibga kura elektr energiasini beriladigan korxonalar uchun 0.2 foiz) miqdorida, ammo kechiktirilgan tulov summasining 50 foizidan ortiq bulmagan miqdorda penya tulaydi.

6.3. "Iste'molchi"ning taklifiga kura muljallanayotgan uzgartirishlarga 10 kundan kech bulmagan uddatda kiritilgan elektr energiasining shartnomadagi hajmlarining uzgartirilishi elektr energiasini kam olish yoki ortiqcha olish deb hisoblanmaydi.

6.4. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik va boshka masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

VII. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

7.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda tomonlar, qoidaga kura ularni sudgacha xal etish yuzasidan tegishli choralarni kuradilar. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat kilishga ham haqlidir.

7.2. SHartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama uzgartirishga yul quyilmaydi, konun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

VIII. FORS-MAJOR VA JAVOGBARLIKDAN OZOD ETISH

8.1. Tomonlardan biri shartnomani engib bulmaydigan kuch, ya'ni favkulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bulmaydigan vaziyatlar (zilzila, suv toshkini, va boshka tabiiy ofatlar) (fors-major) tufayli bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligini isbotlasa, javobgar bo'lmaydi.

IX. SHARTNOMANING AMAL KILISHI

9.1. Mazkur shartnomaga uzgartirishlar (kushimchalar) tomonlar imzolagan paytdan keyin bajarilishi kerak.

9.2. Mazkur shartnomaga har kandy uzgartirish va kushimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil kilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan hakikiy hisoblanadi.

9.3. Ushbu shartnoma ikkala tomonlama imzolanib hududiy g'aznachilik bo'linmasida ro'yhatdan utkazilgandan sung qonuniy kuchga kiritilib, ro'yhatdan o'tkazilgan kundan boshlab 2022 yilning "31" dekabrgacha amal qiladi.

9.4. Taraflar o'rtasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan ta'dirda to'htatiladi.

X. YAKUNIY KOIDALAR

10.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki boshqa tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birining talabi bo'yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

10.2. Mazkur shartnoma ikki nushada tuzilib, tomonlarning har biriga bir nushadan koldiriladi. SHartnomaning har ikkala nushalari teng yuridik kuchga ega.

XI. TOMONLARNING YURIDIK MANZILI VA BANK REKVIZITLARI.

«Ijrochi»

«Buyurtmachi»

Qarshi tuman Elektr tarmoqlari
Manzil: Beshkent shahar__
Tel./faks : _____
x/r: 22636000700177786344
Bank nomi _Uzsanoatqurulish bank
MFO 00854 STIR 200666494
OKONH

Qarshi tuman SEO va JSX
Manzil: Nurli Kelajak ko'chasi 1-uy
Tel./faks 572-25-73
shxr: 100022860102247074110054003
STIR: 201628080. OKONH 91531
Moliya Vazirligi Gaznachiligi
G'azna h/v: 23402000300100001010
Bankning nomi Toshkent sh Markaziy bank
MFO: 00014. STIR: 201122919

Raxbar


M.O'



(F.I.SH)

Raxbar

M.O'



I.B.Mashtinov

ЮРИДИК АҲАМИЯТГА ЭГА ҲУЖЖАТЛАРНИНГ ҚОНУН ҲУЖЖАТЛАРИГА МУВОФИҚЛИГИ ТЎҒРИСИДА ҲУҚУҚИЙ ХУЛОСА

1. Лойиҳанинг тури Шахсий таркиб. Электр энергия билан таъминлаш шартномаси
2. Лойиҳанинг номи

Санитария эпидемиологик осойишталик ва жамоат саломатлиги хизмати Қарши туман бўлими ва электр тармоқлари корхонаси ўртасида электр энергияси билан таъминлаш бўйича шартнома лойиҳаси

3. Лойиҳа ишлаб чиқувчиси ва киритилган сана ҳақидаги маълумот Санитария эпидемиологик осойишталик ва жамоат саломатлиги хизмати Қарши туман бўлими томонидан лойиҳа 2022 йил 20 январда киритилган.

Лойиҳа Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик Кодекси талабларига риоя этилган ҳолда киритилган.

Марказ бош юрисконсульти
2021 йил «20» январ

Ш.Кушоков

